

To'raqulov Nazir To'raqulovich



To'raqulov Nazir To'raqulovich

(1892 yil, oktabr, Qo'qon – 1937 yil 3-oktabr)

Davlat, siyosat arbobi, tilshunos olim va diplomat. O'ziga to'q qozoq oilasida dunyoga kelgan. Qo'qondagi rus-tuzem maktabi (1905), savdo bilim yurtini (1913) tugatgan. Moskva savdo institutining iqtisod fakultetida o'qigan (1913-16). 1-jahon urushi paytida g'arbiy front (Minsk yaqini)da Butun Rossiya Zemstvo ittifoqining yo'riqchisi (1916). "Erkin dala" yashirin tashkiloti rahbari (1916). Eserlar partiyasining a'zosi (1918).

1918-19 yillarda Qo'qondagi sovet idoralarida turli lavozimlarda ishladi. Keyinchalik *Turkiston ASSR Maorif xalq komissari* (1920), *Turkiston ASSR MIK raisi* (1920 yil sentabr – 1921 yil avgust), *Turkiston KP MK mas'ul kotibi* (1921-22). *Turkiston MIK huzuridagi Qirg'iz (qozoq) bo'limi raisi* (1921-22). Turkiston "Qo'shchi" uyushmasining tashkilotchilaridan biri. N. To'raqulov bu lavozimlarda ishlash jarayonida sovet hokimiyati va bolsheviklar partiyasiga sadoqatini namoyish qildi. T. Risqulov va uning tarafdorlari bo'lgan milliy communist rahbarlar fikrlariga qarshi turdi.

Turkiston muxtoriyati hukumati va Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik harakatiga to'g'ri baho bera olmadi va ularni yo'qotish tarafdori bo'ldi. Moskvaga chaqirib olindi va *sovet xalqlari Markaziy nashriyoti raisi* lavozimiga (1922-28) tayinlanadi. U mohir journalist va publitsist ham edi. U o'z maqolalarida asosan sovet turmush tarzining afzalliklarini ko'rsatishga harakat qildi.

1928 yilda N. To'raqulov elchilik ishiga jalb qilinadi va SSSRning Hijoz davlatidagi (hozirgi Saudiya Arabistoni) *Bosh konsuli* va *Muxtor elchisi* vazifalarida ishladi (1928-1936). U Sharq xalqlari tarixi va madaniyatini yaxshi bilganligi uchun islom olamida shuxrat qozondi.

N. To'raqulov Moskva va Leningraddagi *Sharq xalqlari instituti ilmiy*

xodimi va prorektori (1936-37) bo'lib ham ishladi.

U qanchalik sovet hukumatiga, bolsheviklar partiyasiga sodiq bo'lmasin, mustabid tuzumning qonli qatag'onidan qutulib qola olmadi. 1937 yil 15-iyunda qamoqqa olindi va otishga hukm qilindi (1937 yil 3-oktabr). 1958 yilda oqlangan.

2023-11-29 10:15:17